ZAMONAVIY XITOY LISONIY TAFAKKURIDA “五福 [WǓFÚ]” BAXT MODELINING SOTSIOLINGVISTIK TALQINI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-24-64-65

Valieva Noiba Abbosxanovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
“Xitoyshunoslik” oliy maktabi katta o‘qituvchisi, PhD
naying1564@mail.ru

A SOCIOLINGUISTIC INTERPRETATION OF THE “五福 [WǓFÚ]” MODEL OF HAPPINESS IN CONTEMPORARY CHINESE LINGUISTIC THOUGHT

Valieva Noiba Abbosxanovna
PhD, Senior Lecturer, Higher School of Chinese Studies,
Tashkent State University of Oriental Studies
naying1564@mail.ru

Abstract. *This study examines the sociolinguistic transformation of the traditional Chinese lingucultural model of “五福 [wǔfú]” (the Five Blessings) in contemporary Chinese linguistic consciousness. The study focuses on the constituent dimensions of the concept of happiness, including health, family, material well-being, professional success, peace of mind, and personal freedom, as well as their relationship to gender, age, marital status, and social status. The empirical data were collected through a questionnaire survey conducted via the WeChat platform, involving 100 Chinese respondents. The findings demonstrate that the traditional 五福 model continues to be represented in contemporary Chinese society; however, its internal hierarchy and the semantic content of certain components have undergone significant transformation.*

Keywords: *五福 model, concept of happiness, linguistic consciousness, sociolinguistics, linguoculture, health, family, good health and well-being.*

Asosiy qism. Zamonaviy tilshunoslikda konseptlarning milliy-madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini aniqlashda sotsiolingvistik yondashuv muhim metodologik ahamiyatga ega. Til jamiyatdan tashqarida mavjud bo‘lmay, xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va dunyoqarashi bilan uzviy aloqada shakllanadi. Shu sababli xitoy tilidagi “baxt” konseptini tadqiq etish nafaqat uning lingvistik mazmunini, balki jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning lisoniy ifodasini ham aniqlash imkonini beradi.

Xitoy lingvomadaniyatida baxt haqidagi an’anaviy tasavvurlarning muhim modellaridan biri 五福 [wǔfú] hisoblanadi. An’anaviy talqinda ushbu model 寿 [shòu] — uzoq umr, 福 [fú] — baxt va farovonlik, 禄 [lù] — martaba va ijtimoiy mavqe, 喜 [xǐ] — quvonch hamda 财 [cái] — boylik komponentlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur birliklar uzoq tarixiy davr davomida xitoy xalqining ideal hayot va farovonlik haqidagi tasavvurlarini ifodalab kelgan.

Biroq zamonaviy Xitoy jamiyatida turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimining o‘zgarishi 五福 modelining semantik va ijtimoiy mazmuniga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy xitoy lisoniy ongida mazkur model qanday talqin qilinishini va uning ijtimoiy-demografik omillar bilan aloqasini aniqlashdan iborat. Shu maqsadda WeChat platformasi orqali 100 nafar xitoylik respondent ishtirokida anketa-so‘rovnoma o‘tkazilib, ma’lumotlar jins, yosh, oilaviy holat va ijtimoiy maqom mezonlari asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy xitoy lisoniy ongida an’anaviy 五福 modelining saqlanayotganini, biroq uning komponentlari o‘rtasidagi iyerarxiyaning o‘zgarganini ko‘rsatdi.

Xususan, 健康 [jiànkāng] — “sog‘liq” umumiy modelda eng muhim qadriyatlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu komponent an’anaviy 寿 [shòu] — “uzoq umr” tushunchasining zamonaviy mazmuniy transformatsiyasi sifatida baholanishi mumkin. Demak, zamonaviy respondentlar uchun uzoq umrning o‘zi emas, balki sog‘lom va sifatli hayot kechirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Ikkinchi muhim komponent — 家庭 [jiātíng] — “oila”. Respondentlar nutqida 四世同堂 [sì shì tóngtáng], 花好月圆 [huā hǎo yuè yuán], 平安喜乐 [píng’ān xǐlè] kabi birliklarning qo‘llanishi oilaviy totuvlik va farovonlikning baxt konseptidagi yuqori mavqeini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ayol respondentlar hamda turmush qurganlar guruhida oila bilan bog‘liq qadriyatlarning faol ifodalanishi kuzatildi.

Shu bilan birga, zamonaviy lisoniy ongda an’anaviy 五福 modelida bevosita ustuvor bo‘lmagan erkinlik, mustaqillik va shaxsiy tanlov kabi qadriyatlar ham kuchaymoqda. 自在如风 [zìzài rú fēng], 自由自在 [zìyóu zìzài], 自给自足 [zìjǐ zìzú], 自由随性 [zìyóu suíxìng] kabi birliklar individual hayot tarzi va shaxsiy erkinlikka yo‘nalgan zamonaviy qadriyatlarni aks ettiradi.

财 [cái] — “boylik” komponenti ham ayrim ijtimoiy guruhlarda muhim o‘rin egallaydi. Xususan, turmush qurmagan ayollar va talabalar nutqida moddiy barqarorlik bilan bog‘liq tasavvurlar nisbatan faol namoyon bo‘lgan. 美满富足 [měimǎn fùzú] va 衣食无忧 [yīshí wúyōu] kabi frazeologik birliklar moddiy ta’minlanganlikning zamonaviy baxt konseptidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Ayni paytda 禄 [lù] — “martaba va ijtimoiy mavqe” komponentining mavqei barcha guruhlarda bir xil emas: u 30–50 yoshdagi erkaklar hamda erkak talabalar uchun nisbatan muhimroq bo‘lib, umumiy modelda esa an’anaviy davrga nisbatan nisbiy mavqeini yo‘qotgan.

福 [fú] komponentining zamonaviy talqinida esa 安宁 [ānníng] — “osoyishtalik, xotirjamlik” mazmuni kuchaygan. 安享晚年 [ānxiǎng wǎnnián] va 平安喜乐 [píng’ān xǐlè] kabi birliklar xavfsizlik, tinchlik va xotirjam hayotga bo‘lgan ehtiyojni ifodalaydi. Shuningdek, 国富民强 [guófù mínqiáng] birligining baxtni ifodalovchi vosita sifatida qo‘llanishi shaxsiy farovonlik bilan bir qatorda jamiyat va davlat ravnaqi haqidagi kollektivistik tasavvurlar ham saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy xitoy lisoniy ongidagi 五福 modeli an’anaviy mazmunini to‘liq yo‘qotmagan, balki yangi ijtimoiy va individual qadriyatlar bilan boyigan dinamik lingvomadaniy-sotsiolingvistik model sifatida namoyon bo‘lmoqda. Umumiy modelda 健康 — “sog‘liq” va 家庭 — “oila” komponentlari yuqori mavqega ko‘tarilgan; 财 — “boylik” ayrim guruhlarda muhim ahamiyat kasb etgan; 禄 — “martaba va maqom” komponentining nisbiy mavqei pasaygan; 福 esa ko‘proq 安宁 — “osoyishtalik” mazmunida talqin qilinmoqda. Shu bilan birga, shaxsiy erkinlik va mustaqillik kabi yangi qadriyatlarning kuchayishi zamonaviy xitoy jamiyatidagi ijtimoiy-madaniy transformatsiyalarning lisoniy ongda aks etayotganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа. — Краснодар, 2002.
2. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. — М.: Прогресс, 2000.
3. Клеменчук С.В. О методах социолингвистического исследования // Альманах современной науки и образования. — 2010.
4. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. — М.: Едиториал УРСС, 2004.
5. Татаркевич В. О счастье и совершенстве человека. — М., 1981.